



“Tasdiqlayman”

Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
rektorining o'rinbosari G.I. Muxamedov

2025 y.

## Universitet “Milliy Istiqbol Markazi” faoliyatini tashkil etish bo'yicha

### LOYIHA

**1. Loyiha nomi:** Universitet “Milliy Istiqbol Markazi”

**2. Loyiha rahbari:** Abdusamatov Javlonbek, +9989633599733,  
abdusamatovjavlonbek590@gmail.com

**3. Loyiha amalga oshiriladigan manzil:** Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektorat binosidan ajratiladigan maxsus xona. Umumiy maydoni: kv.m.. (tasvirga olish maydoni, montaj xonasi, Bosh bino faollar zali, zal ichki xonalari kiyim almashtirish grim qilish va kerakli uskuna va kiyimlarni saqlash uchun).

**4. Loyihaning davomiyligi:** Doimiy

**5. Loyihaning tavsifi:** Universitet Milliy Istiqbol Markazi talabalarining ijodiy, madaniy va ma'naviy salohiyatini rivojlantirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda respublika va xalqaro miqyosda universitet obro'sini oshirish universitetning raqamli media makondagi o'rnini mustahkamlash uchun yagona ijodiy markaz sifatida faoliyat yuritadi. Studiyada teatr, QVZ, bayram va tadbirlarning badiiy qismi, media markaz yo'nalishlari bo'yicha ishlar olib boriladi.

**6. Loyiha maqsadi:** Universitetimizda iqtidorli intiluvchan yoshlarni kashf qilish, abituriyentlar qiziqishini oshirish, talabalarining bo'sh vaqtlarini unumli sarflash, ularning ma'naviy salohiyatini oshirish erkin fikirlaydigan kadrlar sifatida takomillashishini taminlash, universitetda yaratilgan sharoitlarni ijtimoiy tarmoqlar orqali keng jamoatchilikka targ'ib qilish hamda abituriyentlar qiziqishlarini oshirish.

**7. Loyihaning ish rejasi:**

T/r	Amalga oshiriladigan vazifalar	Amalga oshirish davri	Hisobot turi
1.	<b>Tashkiliy bosqich:</b> Ajratilgan xonalarni ta'mirlash va jihozlash, kerakli texnikalarni xarid qilish, jamoani shakllantirish.	1- oy	Xaridlar dalolatnomasi, bajarilgan ishlar hisoboti
2.	<b>Test va ishga tushirish bosqichi:</b> Har bir loyiha mas'ullari tomonidan ish-reja ishlab chiqish umumiy loyiha raxbariga tasdiqlatish har bir loyiha bo'yicha 1 tadan ishlarni amalga oshirish va natijalarini topshirish.	1-2 oylar	Oylik hisobot, pilot loyihalar taqdimoti
3.	<b>Asosiy faoliyat bosqichi:</b> Tasdiqlangan ish-rejaga muvofiq loyihalarni muntazam davom etishi uchun zaruriy choralarni ko'rish.	2-3 oylar	Oylik tahliliy hisobot (ko'rishlar soni, obunachilar o'sishi), choraklik taqdimot
4.	<b>Tijoratlashtirish bosqichi:</b> Hamkorlar va homiylarni jalb qilish, pullik xizmatlar ko'rsatish imkoniyatlarini o'rganish va yo'lga qo'yish.	3-oydan boshlab	Moliyaviy tushumlar bo'yicha oylik hisobot

**8. Loyiha byudjeti:** Milliy Istiqbol Markazi menedjrlari tomonidan har bir bo‘lim extiyojlaridan kelib chiqib hisoblanadi.

**9. Mehnat haqqi:** Loyiha rahbari J.Q.Abdusamatovga oylikdan tashqari oylik loiha davomiyligi vaqtida 6.000.000 (olti million) so‘m miqdorda to‘lanishi belgilanadi.

**10. Loyiha xavf-xatarlari va ularni boshqarish usullari:**

Xavf-xatar	Boshqarish usuli
Loyihaga jalb etilgan xodimlarning malakasi yetarli bo‘lmasligi, natijada loyiha sifati past bo‘lishi va xodimlar qo‘nimsizligi.	Nomzodlarni sinchkovlik bilan saralash, portfoliolarini o‘rganish. 3 oylik sinov muddati belgilash. Xodimlar uchun muntazam ravishda soha mutaxassisleri tomonidan mahorat darslari tashkil etish.
Texnik uskunalarning ishdan chiqishi yoki nosozligi sababli loyihalar o‘z vaqtida bajarilmasligi.	Uskunalarga doimiy texnik xizmat ko‘rsatish rejasini tuzish. Kutilmagan holatlar uchun byudjetda kichik zaxira mablag‘ini saqlash.
Ishlab chiqarilgan loyihalarning tomoshabinlar tomonidan kutilganchalik qabul qilinmasligi, qiziqishning pastligi.	Kontentni e‘lon qilishdan oldin maqsadli auditoriya (talabalar) orasida fokus-guruhlar tashkil etib, fikrlarini o‘rganish. Ijtimoiy tarmoqlardagi trendlarni doimiy kuzatib borish va media-rejaga o‘zgartirishlar kiritish. Tomoshabinlar bilan interaktiv aloqani yo‘lga qo‘yish (so‘rovnomalar, tanlovlar).

**11. Loyihadan kutilayotgan natijalar:**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti nufuzini oshirish hamda madaniy markas sifatida keng ommaga tanitish. Loyiha davomida quyidagi aniq ko‘rsatkichlarga (KPI) erishish:

- Har yili kamida 2 ta yirik spektakl va 3–4 ta bayram va tadbir o‘tkaziladi.
- 2000–3000 nafar talaba va 3000 ga yaqin maktab o‘quvchilari qamrab olinadi.
- Har yili 100 nafardan ortiq iqtidorli talaba ijodiy faoliyatga jalb etiladi.
- Qo‘shni universitetlar va harbiy qismlar bilan hamkorlik rivojlanadi.
- Universitetning madaniy-ma‘naviy nufuzi oshadi.
- Universitet hisobiga homiylik va spektakllar orqali qo‘shimcha mablag‘ jalb qilinadi.

**12. Loyiha jamoasi:**

No	F.I.Sh.	Loyihani amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan vazifalar	Amalga oshirish muddati
1.	Abdusamatov Javlonbek Qahramon o‘g‘li	Loyiha rahbari, umumiy strategiyani belgilash, ijodiy guruh faoliyatini nazorat qilish, moliyaviy masalalar.	Doimiy
2.		Media bo‘limi menedjeri, SMM mutaxassisi. Media-reja tuzish, kontentni tarmoqlarga joylash, tahlil qilish, auditoriya bilan ishlash. Tasdiqlangan	Doimiy

	Abduqodirov Muhammadzoxid Xabibulla o'g'li	ish reja bo'yicha har oy yakunida hisobotlarni tayyorlash va topshirish.	
3.	Jalolov Ulug'bek Ahmadjon o'g'li	Badiiy qismlar menejleri, Universitetning rasmiy tadbirlari badiiy qismlariga takrorlanmas tadbirga mos badiiy chiqishlarni tashkil qilish. Tasdiqlangan ish reja bo'yicha har oy yakunida hisobotlarni tayyorlash va topshirish.	Doimiy
4.	Baymatov Abdusodiq Rustamjon o'g'li	Teatr bo'limi menejleri, Universitet teatr studiyasi faoliyatini tashkil etish, rejalarini tasdiqlatish, universitet "TEATR FESTIVALI"ni tashkil etish va doimiy amalga oshirishni taminlash, Ma'rifat maydoni 3-sharti uchun jamoni tayyorlash. Tasdiqlangan ish reja bo'yicha har oy yakunida hisobotlarni tayyorlash va topshirish.	Doimiy
5.	Pardayev Xurshid Abduamrullo o'g'li	QvZ bo'limi menejleri, Universitet Quvnoqlar va zukkolar ko'rik tanlovini reja asosida tashkil etish, jarayonlarni nazorat qilish, QvZ Respublika tanloviga jamoani shakillantirish va ularni tayyorlash, ichki tadbirlarda ham QvZ o'rnini mustahkamlash. Tasdiqlangan ish reja bo'yicha har oy yakunida hisobotlarni tayyorlash va topshirish.	Doimiy

\* loyihaga universitetda asosiy shtatda faoliyat olib boradigan xodimlari va universitet talabalari kiritilishiga ruxsat beriladi. Qo'shimcha ishlarga universitetning faol talabalari ko'ngilli tarzda jalb etiladi.

### 13. Moliyaviy xulosa:

№	Yakuniy natijalar nomi	Natijalarni tijoratlashtirishdan tushadigan mablag'lar*
1.	Homiylik integratsiyalari	Loyihaning 5 oyidan boshlab daromad keltirishi kutiladi.
2.	Universitetning pullik xizmatlari (kurslar, tadbirlar) uchun xizmatlar ko'rsatish	Natijalar universitet marketing bo'limi bilan hamkorlikda baholanadi.

### Natijalarni tijoratlashtirishdan tushadigan mablag'lar quyidagi tartibda yo'naltiriladi:

- 50% - Asosiy xodimlarning oylik maoshiga qo'shimcha rag'batlantirish va jalb qilingan ekspertlar xizmat haqi fondiga.
- 25% - Markaz tomonidan tashkil etilgan tanlovlarni moliyalashtirish, talabalar o'rtasida o'tkazilgan tanlovlar g'oliblarini mukofotlashga.
- 25% - Universitet xisobiga.

### 14. Loyiha nazorati va hisobdorlik

Loyiha faoliyatining umumiy nazorati, ish jarayonlarining tasdiqlangan rejaga muvofiq olib borilishi va Media markaz faoliyati bo'yicha hisobdorlik Ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i **Yursinboyev Jahongir Mehrojiddin o'g'li** zimmasiga yuklatiladi.

**Nazorat qiluvchi shaxsning vakolatlari:**


- Loyiha belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiq amalga oshirilishini kuzatib borish.
- Milliy Istiqbol Markazi rahbariyatidan loyiha ijrosi bo'yicha oylik va choraklik hisobotlarni talab qilish va qabul qilish.
- Loyiha samaradorligini baholash va uning faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish.
- Yuzaga kelgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etishda loyiha jamoasiga ko'maklashish.

**15. Moddiy javobgarlik va mulkdan foydalanish**

- Loyiha doirasida xarid qilingan barcha texnik vositalar universitet balansiga olinadi va ulardan belgilangan tartibda, mas'uliyat bilan foydalanish shart.
- Loyiha uchun olingan jihozlar yoki boshqa obyektlarni begona shaxslarga foydalanish uchun berish qat'iyan man etiladi.

**16. Milliy Istiqbol Markazi bo'limlari loyihalari va ish rejalari ilovada keltirilgan.**

Loyiha rahbari



J.Q.Abdusamatov